

TASDIQLAYMAN

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi
Qishloq xo‘jaligi vazirning birinchi
o‘rinbosari**

F.Nurmuhammadov

“ 6 ” mart 2023 yil

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligida o‘tkazilgan
yig‘ilish**

BAYONI № 5

“ 6 ” mart 2023 yil

Nukus shahri

Raislik qildi	F.Nurmuhammadov	-Vazirning birinchi o‘rinbosari
	Q.Bekbergenov	-Vazir o‘rinbosari
	E.Edenbaev	-Vazir o‘rinbosari
		-Vazirlikning bo‘lim boshlig‘lari

KUN TARTIBI:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Rayosat majlisining 2023 yil 3 mart kungi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2023 yilning I yarim yillik ish-rejasiga asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari, qarorlari va farmoyishlari hamda Hukumat topshiriqlarining bajarilishi yuzasidan ijro intizomi va ish yuritish holatini maqsadli o‘rganish yakunlari to‘g‘risida”gi 4-sonli bayoni ijrosini ta‘minlash maqsadida

(F.Nurmuhammadov, Q.Bekbergenov, K.Otepov, M.Qurbaniyazov,)

Kun tartibidagi masala yuzasidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vaziri Z.Ziyadullaev so‘zga chiqib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Rayosat majlisining 2023 yil 3 mart kungi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2023 yilning I yarim yillik ish-rejasiga asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari, qarorlari va farmoyishlari hamda Hukumat topshiriqlarining bajarilishi yuzasidan ijro intizomi va ish yuritish holatini maqsadli o‘rganish yakunlari to‘g‘risida”gi 4-sonli bayonida Qishloq xo‘jaligida ish yuritish va ijro intizomini mustahkamlash, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari borasida olib borilgan ishlarini o‘rganilganligi, o‘rganish natijasida sohoda qator qonun buzilishi holatlariga yo‘l qoyilganligi, sohoga masul bo‘lgan shaxslar o‘z xizmat vazifalarini lozim darajada bajarmayotganligini

va ayonda yol qoyilgan kamchiliklariga va ushbu kamchiliklarning kelib chiqish sabablariga batafsil tuqtab o'tdi.

Bundan sung, vazirlikning o'rinbosarlari, bo'lim boshlig'lari so'zga chiqib o'z fikir va takliflarini bildirib o'tdi.

Yig'ilish boshqaruvchisi kun tartibida kurilayotgan masala bo'yicha sungi yakunlovchi so'zga chiqib Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Rayosat majlisining 2023 yil 3 mart kungi "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2023 yilning I yarim yillik ish-rejasiga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari, qarorlari va farmoyishlari hamda Hukumat topshiriqlarining bajarilishi yuzasidan ijro intizomi va ish yuritish holatini maqsadli o'rganish yakunlari to'g'risida"gi 4-sonli bayonda qayd etilgan holatlar boyicha qabul qilinadigan echimlar to'g'risida taklifini bildirdi.

Yuqoridagi fikir va takliflarni inobatga olib yig'ilish:

QAROR QILDI:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Rayosat majlisining 2023 yil 3 mart kungi "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2023 yilning I yarim yillik ish-rejasiga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari, qarorlari va farmoyishlari hamda Hukumat topshiriqlarining bajarilishi yuzasidan ijro intizomi va ish yuritish holatini maqsadli o'rganish yakunlari to'g'risida"gi 4-sonli bayoni axbaroti ma'lumot uchun qabul qilinsin

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Rayosat majlisining 2023 yil 3 mart kungi 4-sonli bayonida aniqlangan qonun buzulishi holatlarining kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar masul shaxslar tomonidan ishlab chiqilsin.

3. Vazirlikning Hujjatlar va murojaatlar bilan ishlash bo'yicha yetakchi mutaxassis G.Keunimjaevaga Vazirlar Kengashi Rayosat majlisining 2023 yil 3 mart kungi 4-sonli bayonida ko'rsatilgan xato-kamchiliklarga yo'l qo'yganligi uchun qa'tiy ogohlantirilsin.

4. Vazirlikning Hujjatlar va murojaatlar bilan ishlash bo'yicha yetakchi Mutaxassis (Keunimjaeva) mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tadbirlarning aniq rejalarini ishlab chiqsin va ularning bajarilishi yuzasidan Vazirlar Kengashiga belgilangan muddatda axborat tayinlasin.

5. Bayaonning ko'rib chiqish natijasi va belgilangan chora-tadbirlar haqida qonunda belgilangan muddat ichida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga yozma ravishda xabar berilishini taminlasin.

6. Mazkur yig'ilish bayoni topshiriqlarini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Bayonlashtirdi:



A. Turdimova